

O'QUVCHILARDA BADIY-IJODIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Dominjonov Komoliddin Faxriddin o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

"Art pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: komoldindominjonov1994@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari hamda bosqichlari tahlil qilingan. Badiiy-ijodiy kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy qismlari va uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Shuningdek, motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-faoliyat, ijodiy-tadqiqotchilik va refleksiv-baholash bosqichlarining mazmuni ochib berilgan hamda ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: badiiy-ijodiy kompetensiya, tasviriy san'at, estetik tarbiya, ijodkorlik, kompetensiyaviy yondashuv, badiiy tafakkur, pedagogik jarayon, ijodiy faoliyat.

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогические основы и этапы формирования художественно-творческой компетентности у обучающихся. Раскрыты сущность, структурные компоненты художественно-творческой компетентности, а также факторы, влияющие на её развитие. Кроме того, освещено содержание мотивационно-ценностного, когнитивного, операционно-деятельностного, творческо-исследовательского и рефлексивно-оценочного этапов, а также обосновано их значение в образовательном процессе.

Ключевые слова: художественно-творческая компетентность, изобразительное искусство, эстетическое воспитание, творчество, компетентностный подход, художественное мышление, педагогический процесс, творческая деятельность.

STAGES OF FORMING ARTISTIC AND CREATIVE COMPETENCE IN STUDENTS

Abstract. This article analyzes the pedagogical foundations and stages of forming artistic and creative competence in students. The essence, structural components, and factors influencing the development of artistic and creative competence are highlighted. Furthermore, the content of the motivational-value, cognitive, operational-activity, creative-research, and reflective-evaluative stages is revealed, and their significance in the educational process is substantiated.

Keywords: artistic and creative competence, visual arts, aesthetic education, creativity, competency-based approach, artistic thinking, pedagogical process, creative activity.

KIRISH

Bugungi globallasuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimi oldiga har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega hamda o'z bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda samarali qo'llay oladigan shaxsni tarbiyalash vazifasi qo'yilmoqda. Shu nuqtai nazardan kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini rivojlantirish, ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va san'atga oid kompetensiyalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik masalalaridan sanaladi. Badiiy-ijodiy kompetensiya o'quvchining san'at asarlarini estetik idrok etishi, tahlil qilishi, baholashi hamda mustaqil ijodiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi integrativ sifat hisoblanadi. Mazkur kompetensiya nafaqat badiiy bilim va amaliy ko'nikmalarni, balki ijodiy tafakkur, estetik did, emotsional sezgirlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Shu sababli o'quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa tasviriy san'at fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni talab etadi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, badiiy ta'lim, estetik tarbiya va ijodkorlikni rivojlantirish masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Biroq o'quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirishning bosqichlari, ularning mazmuni va pedagogik imkoniyatlarini tizimli ravishda tadqiq etish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv asosida badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va amaliyotga joriy etish zarurati mavjud.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o'quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish, uning tarkibiy komponentlarini

aniqlash hamda mazkur kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik jihatdan samarali bosqichlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish va badiiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik sohalarida keng tadqiq etilgan bo'lib, bu borada mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan bir qator ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

Jumladan, L.S. Vygotskiy ijodkorlikni shaxsning yuqori psixik funksiyalari bilan bog'liq jarayon sifatida izohlab, ijodiy faoliyatning ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqadorligini ta'kidlaydi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali rivojlantirish mumkinligini asoslaydi.

A.N. Leontyev faoliyat nazariyasi doirasida ijodiy faoliyatni motiv, maqsad va harakatlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi. Bu yondashuv badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirishda o'quvchilarning faol ishtiroki va amaliy mashg'ulotlar muhimligini ko'rsatadi. B.M. Nemenskiy va E.I. Itten kabi san'atshunos olimlar tasviriy san'at ta'limida rang, kompozitsiya va estetik idrokning o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi rolini alohida ta'kidlaydilar. Ayniqsa, Ittenning ranglar nazariyasi o'quvchilarning vizual idrok va estetik qarashlarini shakllantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotchilar, jumladan N.A. Musayeva, Sh. Qurbonova, A. Jo'rayevlarning ishlarida tasviriy san'atni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv, estetik tarbiya va ijodiy faoliyatni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlar va amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi asoslab berilgan.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik adabiyotlarda badiiy-ijodiy kompetensiya integrativ tuzilma sifatida qaralib, u bilim, ko'nikma, malaka, ijodiy tajriba va qadriyatli munosabatlar majmuasi ekanligi e'tirof etiladi. Bu esa mazkur kompetensiyani shakllantirishning bosqichma-bosqich va tizimli yondashuvga

asoslanishini talab etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy adabiyotlarda badiiy-ijodiy kompetensiyaning ayrim jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, uni shakllantirishning aniq pedagogik bosqichlari va ularning amaliy mexanizmlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda ushbu masala kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlari nazariy jihatdan asoslanib, amaliy pedagogik jarayonda sinovdan o'tkazildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning ijodiy faolligini sezilarli darajada oshiradi hamda ularning estetik idrokini rivojlantiradi. Tajriba-sinov ishlari davomida motivatsion-qadriyatli bosqichda o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishi ortgani kuzatildi. Darslarda milliy va jahon tasviriy san'at namunalariidan foydalanish, vizual materiallar va interfaol metodlar o'quvchilarda ijodiy faoliyatga ijobiy munosabat shakllanishiga xizmat qildi.

Kognitiv bosqich natijalariga ko'ra, o'quvchilar tasviriy san'atning nazariy asoslari, kompozitsiya qonuniyatlari, rangshunoslik va perspektiva bo'yicha bilimlarni ancha samarali o'zlashtirdilar. Test va og'zaki so'rov natijalari bilim darajasining oshganini ko'rsatdi.

Operatsion-faoliyat bosqichida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Ular rangtasvir, chizmachilik va kompozitsion topshiriqlarni bajarishda mustaqillik va ijodiy yondashuvni namoyon etdilar. Ayniqsa, individual va guruhij ijodiy ishlarda faollikning oshgani qayd etildi.

Ijodiy-tadqiqotchilik bosqichi natijalari o'quvchilarning muammoli vaziyatlarga original yechim topish qobiliyati rivojlanganini ko'rsatdi. Mustaqil ijodiy loyihalar tayyorlash jarayonida ularning badiiy tafakkuri, tasavvuri va innovatsion yondashuvi sezilarli darajada shakllandi.

Refleksiv-baholash bosqichida o'quvchilar o'z faoliyatini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash hamda o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirdilar. O'zaro baholash jarayonlari ham o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini kuchaytirdi.

Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash joizki, badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular ketma-ket emas, balki integrativ tarzda amalga oshirilganda yanada yuqori samaradorlikka erishiladi. Ayniqsa, ijodiy-tadqiqotchilik bosqichi barcha oldingi bosqichlarda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlovchi yakuniy integratsion bosqich sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar – loyiha metodi, muammoli ta'lim, portfolio va interfaol usullar o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Ushbu metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, estetik didi va ijodiy faolligi sezilarli darajada oshdi. Umuman olganda, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirishning ishlab chiqilgan bosqichlari amaliy jihatdan samarali ekanligini ko'rsatdi hamda ularni umumiy o'rta ta'lim tizimida qo'llash maqsadga muvofiqligini tasdiqladi.

XULOSA

O'quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-faoliyat, ijodiy-tadqiqotchilik va reflektiv-baholash bosqichlarining izchil amalga oshirilishi o'quvchilarning estetik tafakkuri, ijodiy faolligi va amaliy ko'nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Mazkur bosqichlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni barkamol va ijodkor shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur kompetensiya o'quvchilarning estetik dunyoqarashi, badiiy tafakkuri, amaliy faoliyati va ijodiy yondashuvining o'zaro uyg'unligi asosida rivojlanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikma va malakalarini ham rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Tadqiqot davomida badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirishning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-faoliyat, ijodiy-tadqiqotchilik hamda reflektiv-baholash bosqichlaridan iborat pedagogik modeli ishlab chiqildi va uning nazariy asoslari yoritildi. Ushbu bosqichlarning izchil va uzviy amalga oshirilishi o'quvchilarda san'atga qiziqishning ortishi, estetik didning shakllanishi, mustaqil fikrlash hamda

ijodiy faoliyat ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, tasviriy san'at mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar, muammoli ta'lim, loyiha metodi, portfolio va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga hamda badiiy faoliyat natijadorligini ta'minlashga yordam berishi asoslandi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, o'z imkoniyatlarini namoyon etish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilishiga keng imkoniyat yaratadi. Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirishning ilmiy asoslangan bosqichlarini ta'lim amaliyotiga joriy etish ularning estetik madaniyatini yuksaltirish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yo'nalishda tajriba-sinov ishlari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish va badiiy-ijodiy kompetensiyaning shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini takomillashtirish muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anderson L.W., Krathwohl D.R. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing (Revised Bloom's Taxonomy)*. – New York: Longman, 2001.
2. Eisner E.W. *The Arts and the Creation of Mind*. – Yale University Press, 2002.
3. Gardner H. *Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice*. – New York: Basic Books, 2006.
4. OECD. *The Future of Education and Skills: Education 2030 Framework*. – Paris: OECD Publishing, 2018.
5. UNESCO. *Rethinking Education: Towards a Global Common Good?* – Paris: UNESCO Publishing, 2015.
6. Jonassen D.H. *Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments*. – New York: Routledge, 2004.
7. Musayeva N.A. Tasviriy san'atni o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. Qurbonova Sh.A. O'quvchilarda estetik tarbiyani rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
9. Jo'rayev A.A. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2021.
10. Dominjonov K.F. O'quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlari. – Namangan: Namangan davlat pedagogika instituti, 2026.